

## TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSIYALARDAN KENG FOYDALANISH VA YOSHLAR BILAN ISHLASH JARAYONINING AMALIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.

**Xalilova Sabriye Abdulvanovna.**

Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi umum ta'lim fanlar bo'limi Rus tili fani  
o'qituvchisi

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini isloh qilishda, darslarni sifatli tashkil etish, ta'lim berish jarayonida innovatsiyalardan keng foydalanish, o'quvchilarni amaliy tayyorgarligini mustahkamlash, ularda mavjud barcha kamchiliklarni bartaraf etish – bu barcha o'quvchilarni, balki barcha Oliy ta'lim muassalarida qiynab kelayotgan masalardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu kabi muommalarni quyida ko'rib chiqishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, axborot texnologiyalari, zamonaviy va ilg'or ta'lim texnologiyalari, raqamli texnologiya, xalqaro tajribalar, samaradorlik, pedagogik texnologiya, virtual stend, modernizatsiyalash, konsepsiya, akmeologik motivat-siya, adabiyotlar.

Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish – zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali kichik mutaxassis kadrlarni tayyorlash va mazkur jarayon samaradorligini ta'minlovchi kasbiy ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan<sup>1</sup>. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ham ta'lim tizimida erishilgan muvaffaqiyatlar va mavjud kamchiliklarni obyektiv tahlil qilib, kadrlar tayyorlashda tub islohotlarga ehtiyoj borligini isbotlab berdi. Shuningdek, I.A.Karimov o'z nutqida mazkur masala-ning ijtimoiy zaruratini asoslab, "Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada oliy maktabning, hatto, umumiy ta'lim maktablarining faoliyatini tubdan isloh qilish kerak", deya ta'kidlagan.<sup>2</sup>

Darhaqiqat, mazkur masalalarni hal etish respublikamizdagi mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish orqali yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish maqsadini nazarda tutadi. Shunday ekan, barkamol shaxsni tarbiyalash, uni mutaxassis sifatida shakllan-tirish, jamiyatda munosib kasbiy-ijtimoiy statusga ega bo'lishida oily ta'limi muassasalarining o'rni katta.

Ma'lumki dunyodagi mavjud barcha jamiyatning kelajagi, taraqqiyoti ta'lim tizimining qay darajada taraqqiy etgani bilan belgilanadi. Shu boisdan ham, hozirda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan davlatimizning uzluksiz talimni isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirilishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ham sir emas. Ta'lim-tarbiya jarayoni

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012 y. – 46 b.

<sup>2</sup> Azixodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. B– 84

murakkab jarayon hisoblanadi. Uning murakkabligi shundaki, modernizatsiya sharoitida ta'limning samaradorligiga erishishdir, samarador-likka erishish esa ko'plab omillar, xususiyat va tendensiyalar bo'lishini talab etadi. Birinchi navbatda, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchida motiv shakllan-ganligi, ularning orasida o'zaro munosabat faollik nuqtai nazaridan bog'langan-ligi, ta'lim oluvchi yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojini qondirishga harakatda bo'lishi, ta'lim beruvchi esa darsni tashkil etishda uning mukammal-ligiga, to'g'ri tashkil etilishiga, metodika esa talabga javob beradigan darajada tuzilganligi kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. Yurtboshimiz

tashabbuslari bilan yangi davrga qadam qo'yilayotgan bir davrda keng fikrlash doirasiga ega, bilimlarni chuqur egallagan, o'z sohasida ye-tuk va davr talabiga javob beraoladigan shaxslarga bo'lgan etibor va talab ku-chayotgani yana bir karra, modernizatsiyalangan ta'limni va sifatli tashkil etil-gan ta'limni joriy etish masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Shu sababli ham, bilimdon, tashabbuskor, jamiyatda faol va o'z mehnati bilan dunyoni zabt eta-oladigan shaxs shakllantirilishi lozim. O'ylaymanki, hozirgi davr nuqtai nazari-dan kelib chiqib bunday talablarga javob bera oladigan va yuqorida sanab o'til-gan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirishda quyida mezonlarni tashkil etilish muhim ahamiyat kasb etadi:

- Zamonaviy va ilg'or ta'lim texnologiyalari
- Raqamli texnologiya + zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiya
- Xalqaro tajribalar

Avvalo ta'lim texnologiyalari haqidagi tushunchaga urg'u bersak, ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, o'quv materiallarini tanlash va strukturalashdan, ta'lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholash-gacha loyihalashtirishdan tashkil topganligi uning tub mohiyatini ochib beradi. Vaholangki, optimallik va samaradorlik darajasini noan'anaviy usullarini ta'lim-ga olib kelish va uning ilg'orligini ta'minlash zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tashkil etishga zamin yaratadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyati shundan iboratki, u mavjud texnologiyalari bilan bir safda turadi, buning sababi har bir texnologiya o'zining metodi, shakli, uslubi va qo'llanish doirasiga egaligidir. Ammo ta'kidlab o'til-gan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tubdan farq qilib, ular murakkab va tushunish ancha chigal bo'lgan kompleks tushuncha yoki pedagogikaga xos bo'lgan bilimlar sohasini aniq va tushunarli ifoda eta olishi bilan mavjud texno-logiyalardan farq qiladi. Masalan, "Klaster" metodi, "3X4" metodi, "Bumerang" metodi, "Iyearxiya" metodi, "Muammoli ta'lim" metodi, "Keys stadi" metodi va bu metodlarni ko'plab davom ettirishimiz mumkin. Quyida keltirib o'tilgan metodlar ta'limda joriy etilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar turkumi bo'lib, ularning maqsadi bilimlarni puxta egallashga ko'mak berish, samarador-likni ta'minlash ongni yuksalshtirish va o'quvchilarni har xil vaziyatlarga moslashuvchanligini ta'minlashdir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan birgalikda birlasha oladi, o'z mazmun mohiyatini boyitib boradi va ta'lim jarayonida samarali yondashuvning yangi imkoniyatlarini ochib bera oladi. Bunga misol tariqasida axborot texnologiya, ra-qamli texnologiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg'unlashuvini mi-sol qilib keltirish mumkin. Fikrimizni oydinlashtiradigan bo'lsak, axborot texno-logiya, raqamli texnologiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg'un-lashuvi <O'quvchi - kompyuter-simsiz tarmoqlar(internet)-pedagog> o'rtasidagi muloqot deb atash mumkin. Bular yangi davr pedagogik texnologiyaning tarki-biy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonida texnik vositalarning mukammallashgan zamonaviy turi sifatida qo'llana boshlandi. Yurtimizda hukm surayotgan pan-demiya sharoitida, ta'lim berish va ta'lim olishning yangi, zamonaviy turi keng jamoatchilikka havola etildi ya'ni masofaviy ta'limda ta'lim olishga muvaffaq bo'ldik, albatta.

Masofaviy ta'limni biz «O'quvchi-kompyuter-simsiz tarmoqlar (internet)-pedagog» larning uyg'unlashuviz tasavvur eta olmaymiz. Bu kabi dars mashg'ulotlarini yo'lga qoyilishida raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etdi. Biz albatta, simsiz tarmoqlar, internet tarmoqlari va albatta kompyuter texnologiyalar bilan dars maqsadini ushbu sharoitda amalga oshirdik. Bu esa hozirda ta'limdagi eng zamonaviy yondashuv hisoblanib, shu sababdan ham ta'limda yangicha yo'nalish olib kira oldik desak, mubolag'a bo'lmaydi. Masofaviy ta'limdan tashqari raqamli texnologiya-axborot texnologiya-zamonaviy pedagogik texnologiyani uyg'unlashuviga dastur ilovalar orqali darsni tashkil etish haqida ham ko'plab ma'lumotlar keltirish mumkin. Hozirda joriy etilgan va boshqa o'quv yurtlarida tashkil etilayotgan «online jurnal» dasturini, video konferensiyalar o'tkazishni, «video topishmoq» ta'lim texnologiyasini va virtual stendlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shu o'rinda virtual stand tushunchasiga tushuntirish beradigan bo'lsak, virtual stand-o'quv amaliy stendi yoki o'quv-malaka ustaxonasi bo'lib, o'quvchi-o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma'lum yo'nalishda zaruriy ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Virtual stendlar har bir o'quvchi-talaba uchun texnikaga o'zining kirish parametrlarini «buyurishga», o'z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Ta'limni modernizatsiyalash va samaradorligi haqida so'z yuritir ekan-miz, unda yana bir muhim omil, xalqaro tajribalar o'zlashtirishni nazarda tutish maqsadga muvofiq albatta. Xalqaro, chet el tajribasi ya'ni ta'limda o'z yo'nali-shiga va uslubiga ega bo'lgan davlatlarning ilg'or tajribalarini olib kirish hozirda mamalakatimiz davlat siyosati oldida turgan maqsadlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Birobarin, «O'zbekiston Respublikasi Xalq talim tizimini 2030 yil-gacha rivojlantirish konsepsiyasi»sini tasdiqlanishi buning yaqqol isbotidir.

Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveyt-sariya, Germaniya, Malayziya, Kanadaning mutaxassislar tayyorlash bilan bog'-liq tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarda tan-langani mutaxassislikning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo'lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta'minlanadi.<sup>3</sup> Yana bir xalqaro tajribalarni joriy etish doirasida, Koreya davlatining taj-ribasi olib kirildi, bu tajriba barchaga ma'lum bo'lgan kredit-modul tizimidir. Ushbu kredit-modul tajribasi Koreya davlatida yaxshi samara berganligi sabab-dan ham, bu xalqaro va ilg'or tajriba ayrim oily o'quv yurtlarimizda tashkil etildi va o'quv yurtlarida ta'lim kredit-modul tizimini joriy etish bilanoq, ta'-limda sifatni yanada yaxshilanganligini ko'rish mumkin. Darhaqiqat, bu kabi o'z sinovidan o'tgan va yaxshi samara beradigan xalqaro tajribalar bundan keyin ham o'zlashlashtirib boriladi va umid qilamanki, ta'lim tizimimizni moderni-zatsiya qilishda o'zining samaradorligi bilan namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. – T.: Moliya, 2003. B– 84
2. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari / Monografiya. – T.: Fan, 2004. B –73-80.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta'lim tizimini takomil-lashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida»gi farmoni PF-5538 son. 05.09.2018 yil.
4. N.Muslimov, Z.Raximov, X.Qodirov «Ta'lim texnologiyalari» darslik.
5. Toshkent-2017. 11-bet.

<sup>3</sup> Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari / Monografiya. – T.: Fan, 2004. B –73-80.

6. M.F. Hakimova, N.X. Xo‘jayev, D.Q. Axmedov. Zamonaviy pedagogik
7. texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma.– T.:TDIU nashr, 2006y, 52-53-betlar.
8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2012 y. – 46 b.